Ushbu fikr axloq va ijtimoiy munosabatlarning bog‘liqligini yaqqol ko‘rsatadi. Chunki jamiyatda insonning shakllanishi tarbiya va o‘zaro muloqot orqali amalga oshadi. Donishmandlarning pand-nasihatlari, avlodlar o‘rtasidagi tajriba almashinuvi jamiyat barqarorligi uchun juda muhim. Agar inson bunday maslahatlarni e’tiborsiz qoldirsa, u o‘z hayotida ko‘p xatolarga yo‘l qo‘yishi va jamiyatdan uzoqlashishi mumkin. Amerikalik siyosatchi Benjamin Franklin o‘zining yutuqlari siriga to‘qtalar ekan, “men hesh narsa haqida yomon so‘z aytmayman. Lekin har kim haqida bilgan hamma yaqshiliklarini aytib yuraman” degan edi. Bu fikr axloqiy va ijtimoiy munosabatlar nuqtayi nazaridan juda chuqur ma’no kasb etadi. Benjamin Franklinning ushbu so‘zlari insonlarning o‘zaro munosabatlarida ijobiylik va hurmat muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi. Ushbu fikrni axloq va jamiyat kontekstida quyidagicha tahlil qilish mumkin: Franklinning g‘oyasi axloqiy barkamollikka intilishni ifodalaydi. Yomon gapirish – g‘iybat, tuhmat yoki hasad kabi salbiy his-tuyg‘ularni targ‘ib qiladi, bu esa insoniy munosabatlarga zarar yetkazadi. Aksincha, boshqalar haqida faqat yaxshi gapirish insoniy fazilatlarni qo‘llab-quvvatlaydi, mehr-oqibat va do‘stlikni mustahkamlaydi. Benjamin Franklinning bu fikrni ijtimoiy munosabatlarga bog‘liq holda tahlil qilsak, jamiyatda bunday yondashuv ishonch muhitini shakllantiradi. Agar insonlar bir-biri haqida faqat yaxshi gapirishsa, bu o‘zaro hurmat va hamjihatlikni mustahkamlaydi. Bu, ayniqsa, siyosat, ta’lim, ish muhitida muhim, chunki insonlarning bir-biriga bo‘lgan hurmatini oshiradi.

Berdaq insonlar o‘zaro hurmatda, odob bilan gaplashishini targ‘ib qiladi. Bu hozirgi davrdagi ijtimoiy birdamlik va bag‘rikenglik uchun ham juda muhim, ya’ni, Yomon aytma, yaxshi so‘zla, Haq ishga hech o‘ylanma” (Berdaq asaridan parcha).

Berdaq ham Benjamin Franklin ham so‘zning kuchini chuqur tushungan insonlardir. Ikkalasining fikrida ham so‘z–jamiyatni birlashtiruvchi yoki ajratuvchi qudratga ega. Shuning uchun ular yomon so‘zdan tiyilishni, yaxshi so‘z orqali insonlar orasida ijobiy muhit yaratishni targ‘ib qiladilar. Bugungi zamonaviy ijtimoiy munosabatlarda ham, o‘qituvchilikda, rahbarlikda yoki oddiy oilaviy muomalada insonning yomon jihatlarini aytishdan ko‘ra, yaxshi jihatlarini e’tirof etish foydaliroq natija beradi. Bu ijtimoiy munosabatlarda motivasiyani kuchaytiradi, ziddiyatlarni kamaytiradi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa qilib aytganda, Berdaqning nazarida, ijtimoiy adolat – bu har bir insonning jamiyatdagi o‘rnini adolatli tarzda belgilash, uning mehnatini qadrlash, fikriga quloq tutish va uning hayotiy ehtiyojlarini inobatga olish demakdir. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, Berdaqning ijtimoiy adolatga oid qarashlari insonparvarlik bilan chambarchas bog‘liq. U adolatni insoniyat taraqqiyotining mezoni, insonparvarlikni esa shu taraqqiyotning ma’naviy asosi sifatida ko‘radi. Uning gumanistik qarashlari bugungi kunda ham insonlar orasida hurmat, bag‘rikenglik va ijobiy muloqotni rivojlantirish uchun muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati (references):

(1). A.Madvaliyev. Ijtimoiy-siyosiy terminlarning qisqacha izohli lug‘ati: lug‘at. Toshkent, “Sahhof” nashriyoti, 2021, 304-bet.

(2). Фалсафа: энциклопедик луғат. ЎзР ФА, И.Муминов номидаги фалсафа ва ҳуқуқ ин-ти. Т., Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2010, 10-bet.

(3). Kalanov, K., Sabirova U. Ijtimoiy antropologiya. O‘quv qo‘llanma, Toshkent, 2020, 176-bet.

(4). И.Каримов, С.Валиева, К.Туленова. Ижтимоий фалсафа (услубий қўлланма). Тошкент, 2008, 120-бет.

(5). Бердақ. Танламалы шығармаларының жыйнағы. Сағийтов И.Т., Юсупов И., Мақсетов Қ., Жумамуратов Т., Кәримов А., Қайыпназаров Б., Муртазаев А., Ҳамидов Ҳ. Нөкис, 1977, 22-бет.

(6). Жәримбетов К. Бердақтың насиятлары – бизии руўҳый гәзийнемиз. Бердақтың дидактикалық лирикасы ҳаққында. Некис, КР «Руўҳый мәденият ҳәм ағартыў» жәмийетлик орайы, 1998, 3-бет.

Ahmedov Farruh Nurmuhammad o‘g‘li (Renessans ta’lim universiteti; farruhnuriy85@g.mail.com)

YANGI O‘ZBEKISTON YOSHLARINING G‘OYAVIY TARBIYASI

Annotatsiya. *Insoniyat tarixiy taraqqiyot jarayonlaridan ma’lumki, jamiyatdagi har bir ijtimoiy kuch yoki aholi qatlamlari o‘z maqsad va intilishlarini ifoda etuvchi g‘oyalar tizimini yaratgach, boshqalarni ham shu g‘oyalar ta’siriga tortishga, o‘z tarafdorlari safini kengaytirishga harakat qilib kelgan va u davom etaveradi. Bunda ushbu yo‘nalishdagi ma’naviy-ma’rifiy faoliyat va ta’lim-tarbiya jarayoni hamda axloqiy o‘zgarishlar jarayoni muhim ahamiyatga ega. G‘oyalar adolatli va haqqoniy bo‘lib, ko‘pchilikning talab-ehtiyojlariga mos kelsa, bu sohadagi tarbiya vositalari ta’sirchan, tarbiyachilar esa faol va fidoyi bo‘lsa, g‘oyaviy tarbiyadan ko‘zlangan maqsadga erishiladi. Maqolada yangi O‘zbekiston yoshlarining g‘oyaviy*

tarbiyasi metodlarini bilish darajasi kabi masalalar bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar bilan tanishish mumkin.

Kalit so'zlar: *Yangi O'zbekiston, yoshlar, g'oya, mafkura, g'oyaviy tarbiya, yoshlar mafkuraviy tarbiyasi, maqsad, fuqarolik, fuqarolik jamiyati, adolatli jamiyat, ijtimoiy hamjihatlik.*

ИДЕОЛОГИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ МОЛОДЁЖИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

Аннотация. *Из исторических процессов развития человечества известно, что каждая социальная сила или группа населения в обществе, создав систему идей, выражающих ее цели и стремления, пыталась влиять на других и расширять ряды своих сторонников, и это будет продолжаться. В этой связи большое значение имеет духовно-просветительская деятельность, процесс воспитания и нравственного изменения в этом направлении. Если идеи честны и справедливы, отвечают потребностям большинства, если образовательные инструменты в этой области эффективны, а педагоги активны и преданы своему делу, то поставленная цель идеологического воспитания будет достигнута. В статье представлены исследования по таким вопросам, как уровень знаний методов идеологического воспитания молодежи Узбекистана.*

Ключевые слова: *Новый Узбекистан, молодежь, идея, идеология, идеологическое воспитание, идеологическое воспитание молодежи, цель, гражданственность, гражданское общество, справедливое общество, социальная сплоченность.*

IDEOLOGICAL EDUCATION OF THE YOUTH OF NEW UZBEKISTAN

Annotation. *It is known from the historical processes of human development that each social force or population group in society, having created a system of ideas expressing its goals and aspirations, has tried to influence others and expand the ranks of its supporters, and this will continue. In this regard, spiritual and educational activities and the process of education and upbringing, as well as the process of moral changes, are of great importance. If the ideas are fair and just, and correspond to the needs of the majority, if the means of education in this area are effective, and the educators are active and selfless, then the intended goal of ideological education will be achieved. The article presents research on such issues as the level of knowledge of the methods of ideological education of the youth of Uzbekistan.*

Keywords: *New Uzbekistan, youth, idea, ideology, ideological education, ideological education of youth, goal, citizenship, civil society, just society, social cohesion.*

Kirish. Insoniyat tarixiy taraqqiyot jarayonlaridan ma'lumki, jamiyatdagi har bir ijtimoiy kuch yoki aholi qatlamlari o'z maqsad va intilishlarini ifoda etuvchi g'oyalar tizimini yaratgach, boshqalarni ham shu g'oyalar ta'siriga tortishga, o'z tarafdorlari safini kengaytirishga harakat qilib kelgan va u davom etaveradi. Bunda ushbu yo'nalishdagi ma'naviy-ma'rifiy faoliyat va ta'lim-tarbiya jarayoni hamda axloqiy o'zgarishlar jarayoni muhim ahamiyatga ega. G'oyalar adolatli va haqqoniy bo'lib, ko'pchilikning talab-ehtiyojlariga mos kelsa, bu sohadagi tarbiya vositalari ta'sirchan, tarbiyachilar esa faol va fidoyi bo'lsa, g'oyaviy tarbiyadan ko'zlangan maqsadga erishiladi. Jamiyat, xalq, ayniqsa yosh avlod o'z manfaatlarini anglab yetmagan, o'z mafkurasini shakllantirib, maqsadlari sari safarbar bo'lmagan hollarda, begona va zararli g'oyalar ta'siriga tushish ehtimoli ortib boradi. Bu esa g'oyaviy tarbiyani yo'lga qo'yishni, sog'lom mafkura tamoyillarini aholi, jumladan, yosh avlod qalbi va ongiga muttasil singdirishni dolzarb vazifaga aylantiradi.

O'zbekiston "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" tamoyili asosida taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Yangi davr shiddati ta'lim-tarbiya tizimiga ham o'zining aniq, qat'iy talablarini qo'ymoqda.

Ushbu talablar doirasida davlatimizda ta'lim sohasida pedagoglarning moddiy-ma'naviy sharoiti tubdan yaxshilanib, ta'lim sifatini oshirishning zamonaviy texnologiyalari joriy qilinmoqda. Tarbiya va ta'limni bir-biridan alohida ajratib bo'lmaydi, bu ikki jarayon o'zaro uyg'un, uzluksiz asosda tashkil etilgandagina, odobli, axloqiy fazilatlarga ega, yuksak ma'naviyatli, shu bilan birga, bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog'lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo'lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib beradi.

Bugungi kunda O'zbekistonda yoshlar tarbiyasini milliy va zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar asosida shakllantirishni talab etmoqda. Milliy tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarni kafolatli shakllantirishda uning ijtimoiy mexanizmlarini o'rganish, mazkur masalada ta'lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to'liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko'tarishni taqozo etadi. Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, Vatanga sadoqat, burch va mas'uliyat, tashabbuskorlik va boshqa fazilatlar yoshlar ongida nazariy tushunchalar sifatida qolib ketgani holda, uning tabiatida amaliy odatlarga aylan-

mayapti. Buning oqibatida ularning ushbu fazilatlar haqidagi so‘zlari bilan amallari orasida tafovut namoyon bo‘lmoqda, bu esa har yili mustaqil hayotga kirib kelayotgan yigit-qizlarning hayotda o‘z o‘rinlarini topishlarida bir qator muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Ayrim o‘quvchi-yoshlarda yuksak maqsadlarning shakllanmaganligi, o‘zini-o‘zi o‘qishga safarbar qilish, iroda, matonat, tirishqoqlik, harakat fazilatlari yetarli rivojlanmaganligi ta’lim sifatiga ham zarar ko‘rsatmoqda. Masala yuzasidan adabiyotlar tahlili milliy va ma’naviy tarbiya sohasida o‘qituvchilarning faoliyatini metodik ta’minlovchi o‘quv materiallari, jumladan, milliy va ma’naviy tarbiya sohasiga oid metodik qo‘llanmalar, o‘quvchilar uchun zarur darsliklar yetarli emasligini ko‘rsatmoqda. Shu munosabat bilan, bugungi globallashuvning shiddatli va axboriy sharoitida milliy tarbiyaning ijtimoiy-ijtimoiy mexanizmlarini tadqiq qilish orqali yoshlar tarbiyasi uchun tayanch fazilatlarni shakllantirish, mazkur fazilatlarga ularni odatlantirish, tarbiyada tushuntirish, ko‘rsatish, o‘rgatish, namuna bo‘lish kabi ta’sirchan usullarni isloh qilish va shu orqali ma’naviy tarbiya tizimini yanada rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Jamiyatda milliy tarbiya va yoshlarning g‘oyaviy tarbiyasi haqida gap ketganda, beixtiyor taniqli marifatparvar adib Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir” [1] degan chuqur ma’noli hikmatlari inson e’tiborini tortadi. Ko‘plab olimlar o‘z tadqiqotlarida ma’naviy inqirozning asosiy omillari bo‘yicha qator izlanishlar olib borishdi, har xil qiziqarli tahliliy ma’lumotlar asoslandi, lekin bularning ichida odamni tashvishga soladigan, bir qaraganda, e’tiborsizdek tuyuladigan, lekin oqibati tanazzulga, johillikka olib boradigan bir omil, ya’ni, yoshlar tarbiyasiga e’tiborsizlik illati millatning ma’naviy tanazzulining asosi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Bu borada mamlakatimizda yoshlar uchun zarur sharoitlar yaratish, yangi ta’lim-tarbiya, madaniyat, san’at va sport maskanlarini barpo etish, yosh oilalar uchun uy-joylar qurish, yoshlarni ish bilan ta’minlash, ularni tadbirkorlik sohasiga keng jalb etish bo‘yicha amaliy ishlar yangi bosqichga ko‘tarildi va uni yuksaltirish chora-tadbirlari ko‘rilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ta’lim-tarbiya sohasidagi axloqiy o‘zgarishlar, zamonaviy uzluksiz ta’limning muvaffaqiyatli amalga oshirilayotgani, sohaga olib kirilayotgan innovatsion o‘zgarishlarda muhim ahamiyatga ega [2]. Jamiyatda yoshlar tarbiyasiga e’tiborsizlik illati bir qator hujjatlarda, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-iyuldagi PQ-3160-[3], 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-[4], 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-qarorlari [5] va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-qarorlarida (6) g‘oyaviy tahdid sifatida tanqid etilib, mazkur tahdidlarni yuzaga keltiruvchi tarbiyaviy, ijtimoiy omillar bo‘yicha tadqiqotlar olib borish, bunday hurujlarga nisbatan ijtimoiy-g‘oyaviy kurash olib borish vazifasi qo‘yildi.

Tadqiqot metodologiyasi. XXI asrda barkamol farzand tarbiyasining negizi sifatida oila (ota-ona), maktab (pedagog), mahalla (qo‘ni-qo‘shni, nuroniylar, mahala faollari), ijtimoiy muhit (tengqurlari, atrofdagi insonlar) o‘z mavqeyini saqlab qolaveradi. Yoshlarni tarbiyalash quyidagi manbalar asosida amalga oshirilishi mumkin: muayyan tizimli, uzluksiz milliy tarbiyaviy, dasturiy ta’sir orqali; ideal, namuna timsolida o‘z-o‘zini tarbiyalash, takomillashtirish; ijtimoiy muhitdagi yoshlararo munosabatda tahlil qilish, ibrat olish vositalari yordami bilan xulq-odob, fkrlash malakalarini egallash; ajdodlarimiz yaratgan badiiy, falsafy, san’at asarlarini o‘zlashtirish orqali yangi xislatlarni o‘zlashtirish kabilar.

Sh.M.Mirziyoyev ...Mana shunday murakkab va tahlikali zamonda o‘zining kimligini, qanday buyuk zotlarning avlodi, qanday bebaho meros vorislari ekanini teran anglab, ona yurtga muhabbat va sadoqat hissi bilan yashaydigan yosh avlodgina muqaddas zaminimizni turli balo-qazolardan saqlashga, Vatanimizni har tomonlama ravnaq toptirishga qodir bo‘lishini hech qachon unutmasligimiz zarur. XXI asrning muhim xususiyatlaridan biri insonlar ongi va qalbini egallash uchun kurashning kuchayganligidir. Qonli urushlar, harbiy yurishlar, iqtisodiy iskanjaga olishlar o‘rniga ko‘proq mafkuraviy vositalar va ma’naviy qurollar ishlatilmoqda. Odamlarning tafakkuri, ongi, dunyoqarashini egallashga urinishlar tobora kuchaymoqda. Boshqa hudud va xalqlarni o‘ziga qaram qilish uchun ma’naviy buzg‘unchilik uslublari qo‘llanilmoqda. XX asr oxiri–XXI asr boshlarida mafkura poligonlari yadro poligonlariga qaraganda ko‘proq kuchga ega bo‘lib boryapti. Ma’naviyatsizlik, axloqsizlik har qanday bakteriologik qurolga qaraganda ko‘proq ruhiy vayronalik keltirmoqda. Yoshlarimiz o‘rtasida urf bo‘lgan madaniyatning ommaviy turi kiyinishlarida, jamoat joylari va oilada o‘zlarini tutishlarida sezilarli darajada salbiy ko‘rinish kasb etmoqda [7]. Bunday holatlarga yoshlarimiz o‘z-o‘zidan kirib qolganlari yo‘q, albatta. Ularning ongiga so‘z orqali ta’sir qilish yot g‘oya mualliflarining asosiy ish mexanizmidir. Adabiyot atomdan kuchli, degan edi mashhur adibimiz Abdulla Qahhor. Adabiyotning quroli so‘z ekan, biz bu ta’rifni, aynan so‘zga nisbatdan ham ishlatsak, xato qilmaymiz. Chunki so‘z atomdan kuchli ekanligi bois buzg‘unchi toifalarning ham quroliga aylandi. Dunyo ahlini fikrlar xilma-xilligi, turli g‘oyalar hujumi boshqarmoqda. Amir Xusrav Dehlaviy hazratlari so‘zni

ta'rif etar ekanlar, so'z insonning hayoti aslini qamrab olganligini aks ettirib: "So'z asli jonmasmi, o'ylab fikr qil, Nechun jon chiqarda so'zdan qolar til", deydilar. Ilohiy tushunchalarda ham dunyoning yaralishi so'z orqali amalga oshirilgani bayon etiladi. So'z ijobiylik bilan birga salbiylikka ham xizmat qilishi mumkin. Inson esa ong va tafakkur egasidir, qilayotgan ishini anglamog'i va tug'ilgan g'oyalarni doimo bunyodkorlik tomon sarflamog'i lozim. Bunyodkor g'oyalar elni el, millatni millat qilib birlashtiradi, xalqni taraqqiyot yo'liga olib chiqadi. Vayronkor g'oyalar, urush va mojaro insonlar o'rtasida ziddiyatlar kelib chiqishini ta'minlab, beqarorlikni yuzaga keltiruvchi omillardandir. Informatsion xurujlar axloqsizlik falsafasi, o'z demokratik modellarini zo'rlab joriy etish yoshlarimizning vatanparvarlik tuyg'usini susaytirishga qaratilgan –dunyo fuqaroligi degan soxta tamoyilni targ'ib qilib, ularni o'ziga rom etgan turli shou-tomoshalar, ko'ngilochar musiqiy kanallar orqali buzg'unchi g'oyalarni keng yoymoqda. Ayni paytda, ba'zi yoshlarimiz turli yot g'oyalarni xolis axborot manbai sifatida qabul qilayotganini ham e'tibordan qochirmaslik kerak. Kelajak bunyodkorlari yot mafkuralarning mehribonligi, xolisligi, do'stonaligi ortida nima yotganini chuqur anglab olishlari lozim. Bu borada Sharq mutafakkirlaridan Pahlavon Mahmudning: Uch yuz Ko'hiqofni kelida tuymoq, Dil qonidan bermoq falakka bo'yoq, Yoinki, bir asr zindonda yotmoq, Nodon suhbatidan ko'ra yaxshiroq, degan purma'no baytlari asrlar osha ham o'zining ma'nolar ziyosini sochmoqda. Uyg'onmoqning vaqti keldi, Bosh ko'tar, uyg'on! Ozod bo'lib qol. Aytish mumkinki, ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirish o'zimizning birinchi darajali vazifamizga aylandi. Yoshlar tarbiyasi hurmatli Prezidentimizning har bir chiqishlarida alohida ta'kidlanmoqda, jumladan, quyidagi fikrlari diqqatga sazovordir:

"Yosh avlod tarbiyasi haqida gapirganda, Abdurauf Fitrat bobomizning mana bu fikrlariga har birimiz, ayniqsa, endi hayotga kirib kelayotgan o'g'il-qizlarimiz amal qilishlarini juda-juda istardim: Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi ularning ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog'liq. Qarang, qanday bebaho, oltinga teng so'zlar! Bugungi kunda yon-atrofimizda diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, ommaviy madaniyat degan turli balo-qazolarning xavfi tobora kuchayib borayotganini hisobga oladigan bo'lsak, bu so'zlarning chuqur ma'nosi va ahamiyati yanada yaqqol ayon bo'ladi. Haqiqatan ham, hozirgi vaqtda yoshlar tarbiyasi biz uchun o'z dolzarbligi va ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydigan masala bo'lib qolmoqda. Shu ma'noda g'oyaviy profilaktikaning yoshlarni g'oyaviy himoyalashdagi ahamiyati kattadir. Chunki bu vazifa tarixiy an'analarimiz bilan bog'liq bo'lib,komil insonni shakllantirish va uni amalga oshirishga bo'lgan intilishlar insoniyat sivilizatsiyasining ma'no-mazmunini tashkil qiladi. Insoniyat jamiyati tarixiga nazar tashlasak, har qanday jamiyatda komillikning eng asosiy ko'rsatkichi insonning ezgulikka, ijtimoiy baxt-saodatga, gumanistik g'oyalarga munosabatida hamda ularga asoslangan amaliy faoliyatida namoyon bo'ladi. Ya'ni, jamiyatning umumiy rivojiga, insoniyat sivilizatsiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi komillik mezoni insonni, shaxsni barkamol qilish orqali jamiyatni baxtli, saodatli qilishdan iborat bo'lib kelgan.

Bu borada ta'lim-tarbiya xodimlaridan alohida jonkuyarlik va fidoyilik talab etiladi. Yoshlardagi oq-ko'ngillik, jo'shqinlik, olov-otashlikni mehr bilan avaylab o'stirish kerak. Bu haqda jahonning taniqli pedagog-olimlari qimmatli fikrlar qoldirganlar. Jumladan, V.Suxomlinskiyning fikricha, mehribon o'qituvchi bolaning ko'ngliga faqat illatlarni, begona o'tlarni yulib tashlansagina kifoya qiladigan tep-tekis so'qmoq orqali emas, balki ma'naviy fazilatlarning kurtaklari avj oladigan saxovatli dala orqali yo'l topadi [10].

Yangi O'zbekistonning ma'naviy yetuk yoshlari – jamiyatda sog'lom turmush tarzi, yuksak madaniyati, kasb darajasi va ijtimoiy faoliyati bilan aholi o'rtasida namuna ko'rsatadigan yoshlardir. Yoshlar kamoloti, o'z navbatida, ijtimoiy munosabatlar bilan bevosita bog'liqdir. Yoshlarning mafkuraviy tarbiyasi jamiyat muhitiga bog'liq. Jamiyatning sog'lomligi va ijtimoiy muhitning qanday darajada bo'lishi mamlakat rivojiga, mamlakatdagi mavjud muammolarni hal etishga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun ham yoshlar ma'naviyatini mustahkamlash, uni sog'lomlashtirish muammolari jamoatchilikning e'tiboridagi muhim muammolardandir. Zamonaviy jamiyat qurishning asosiy omillari orasida yoshlar qatlamini, uning g'oyaviy dunyosini ilmiy-amaliy jihatdan o'rganish masalasi muhim hisoblanadi. Yoshlarlararo munosabatlarning insoniyat jamiyati kabi qadimiy va dolzarbligi bois o'tmish mutafakkirlaridan tortib to hozirgi zamon tadqiqotchilari ham yoshlar tarbiyasi va ijtimoiy muammolarni hal etish masalalariga o'z e'tiborlarini qaratganlar. Sharqning buyuk allomalaridan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Koshg'ariy, Kaykovus, Hotam ibn Toy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Rizouddin ibn Faxriddin kabi mutafakkir va allomalar jamiyatda ijtimoiy munosabatlarning yoshlarga va ularning ma'naviyatiga ta'sirini uqdirib o'tganlar. Xorij olimlari-

dan D.Adams, A.Gary, A.King, A.Lynda, W.Daniellar tomonidan jamiyat muhitining yoshlar hayoti va faoliyatiga ta'siri empirik jihatdan o'rganilgan.

Pedagogika fanlari doktori, professor M.Mahmudova o'zining "Xalq pedagogikasi mazmuni asosida talaba-yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash tizimi" mavzusidagi ilmiy tadqiqotida yurtimizning kelajagi yoshlar tarbiyasiga, ma'naviy qiyofasiga bog'liqligini ilmiy dalillar asosida yoritib bergan. Bizning nazarimizda, bu borada yoshlarning ma'naviy-ruhiy muammosiga jiddiy qarash, kelajakda ularning namunali, ibratli mutaxassislar bo'lishiga asos yaratadi [11].

Darhaqiqat, tarixning barcha davrlarida olimlar yoshlarning jamiyatdagi o'rniga katta ahamiyat berganlar. Chunki jamiyatning eng katta qatlami yoshlardir. Yoshlar g'oyaviy sog'lom va mustahkam bo'lsa, jamiyatda rivojlanish, tinchlik va farovonlik bardavom bo'ladi. Demak, Yangi O'zbekistonni yanada rivojlantirish, yangi imoniyatlar yaratishda asosiy omillardan biri sifatida yuqoridagi ilmiy-amaliy va nazariy tavsiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bizningcha, nazarimizda, navbatdagi omil – yoshlarni tarbiyalash va jamiyatga munosib fuqaro sifatida tayyorlash hisoblanadi.

Zamonaviy va mustahkam fuqarolik pozitsiyasiga ega yoshlarni shakllantirishning eng muhim shartlaridan biri bu yoshlarni hayotga tayyorlashda ularda ma'naviy hamda ijtimoiy hayot, shuningdek, mafkuraviy kurashuvchanlik mohiyati borasida to'g'ri tushunchalar hosil bo'lishiga ko'maklashish kerak.

Tahlil va natijalar. Jamiyatda yoshlarni g'oyaviy jihatdan mustaqil ijtimoiy hayotga tayyorlash serqirra jarayon sanalib, mazkur jarayonning samarali tashkil etilishi bu boradagi muayyan kamchilik va muammolarning bartaraf etilishi bilan belgilanadi. Xozirda esa Yangi O'zbekistonda yoshlarni mustaqil ijtimoiy hayotga tayyorlash jarayonida bir qator to'siqlar mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iboratdir: birinchidan, jamoat tashkilotlarining yoshlarni mustaqil ijtimoiy hayotga tayyorlash jarayonining mohiyati xususida to'la mas'uliyatga ega emasliklari; ikkinchidan, ta'lim va jamoat tashkilotlarining yoshlardan iborat o'z xodimlari bilan ma'lum masalalarda ochiq-oydin muloqotda bo'la olmasliklari; uchinchidan, ota-onalar tomonidan yoshlarni oilada mustaqil ijtimoiy hayotga tayyorlash uchun nazariy va amaliy bilimlarni o'rganish imkonini beruvchi manbalarning yetarli darajada mavjud emasligi o'zgarishlar sharoitida yoshlarni mustaqil ijtimoiy hayotga tayyorlash jarayonining mohiyatini to'la tushunmasliklariga sabab ekanligini rad etolmaymiz.

Binobarin, yosh avlodni axloqiy, jismoniy, estetik va ma'naviy jihatdan voyaga yetkazishda g'oyaviy tarbiya muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq bu sohada samara beradigan barcha tarbiyaviy norma va tadbirlarni ishga solmasdan turib, mavaffaqiyatga erishib bo'lmaydi. Yoshlar dunyoqarashida yuzaga keladigan his-tuyg'ularni to'g'ri idora etish, bunyodkorlik, yaratuvchanlik g'oyalarini shakllantirish naqadar ta'sirli bo'lishi, jamiyatning bo'lajak ustunlari bo'lishlari uchun astoydil harakat qilish haqidagi tushunchalarni ular ongiga singdirish, yaxshi natija beradi, deb o'ylaymiz.

Bugungi kunda mamlakatimiz poydevorining asosiy qatlamlaridan biri sifatida yoshlarning ma'nan va jismonan barkamol insonlar bo'lib yetishishi, ularning tarbiya sohasidagi savodxonlik darajasi ham muhim masala ekanligi ahamiyatli.

Xulosa. Bizning har bir kunimiz vayronkor g'oyalarga qarshi kurashish negizida ilm olish, salohiyatimizni o'stirish, ma'naviyatimizni yuksaltirishga sa'yi-harakat bilan o'tmog'i lozim. Yurtning obodligiga ma'naviy ruhan tetik, ma'nan yuksak qobiliyatli oqil yoshlar sidqidildan xizmat qilishadi. Xullas, ta'lim tizimi taraqqiyotida mafkuraviy profilaktika talaba yoshlarning tushunchasini, dunyoqarashini shakllantirishga, ularni muayyan g'oya va maqsadlarni ifoda etadigan mafkuraviy bilimlar bilan qurollantirishga yo'naltirilgan innovatsion jarayonni anglatadi. O'zbekiston sharoitida bunday faoliyatning asosiy vazifasi xalqimizning, jumladan, yoshlarning ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish yo'lidagi asriy orzu-istaklari, maqsadlarini, milliy istiqlol g'oyasining mohiyatini keng jamoatchilikka tushuntirish, ayniqsa, yoshlar ongiga singdirishdan iborat bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni alohida ta'kidlash kerakki, jamiyatda yoshlar tarbiyasi – yurt tinchligi, vatan ravnaqi, yoshlarning tarbiyali, ma'naviy yetuk inson bo'lib yetishi mamlakat kelajagi hisoblanadi. Oiladagi farzand tarbiyasi uning kelajakda jamiyat uchun kim bo'lib yetishishida muhim o'rin tutadi. Demak, bola oilada jamiyatning qiyofasini ko'radi, bo'lajak fuqaroning tabiati, dunyoqarashi va axloqiy qiyofasi oilada shakllanadi hamda shunga ko'ra kamol topib boradi. Farzandlarimizni ilm-fan va ta'lim-tarbiya asosida voyaga yetkazish maqsadga muvofq ekan, o'z o'rnida tarbiya esa milliy fazilatlarga yo'g'rilgan milliy tarbiya bilan chambarchas bog'liqdir. Zero, yoshlar kelajak egalari hisoblanadi. Yoshlarimiz ta'lim-tarbiyasida esa milliy tarbiya katta ahamiyatga ega. Eng muhimi, farzandlarimiz tarbiyasiga e'tiborli bo'laylik, aynan shu mezon bolalarimizni ma'nan, ruhan sog'lom, o'z ota-bobolariga, tariximizga, Vatanimizga, ona tilimizga, o'z milliy qadriyatlarimizga hurmat bilan qaraydigan barkamol bo'lib o'sib-unishining asosidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019-yil 23-avgust kuni xalq ta’limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirishga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishi. https://kun.uz/news/2019/08/23

(2). O‘zbekiston Respublikasining ”Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni. 2020 /https://kun.uz

(3). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-iyuldagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi PQ-3160-qarori. https://lex.uz/docs/3360950

(4). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4307-qarori. https://lex.uz/docs/4320700

(5). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5040-qarori. https://lex.uz/docs/5344692

(6). O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-qarori.

(7). Quronov M. “Har bir ota-ona pedagog bo‘lish kerak”. Maqola. http://www.adolatnashr.uz/

(8). Akramova F.A. “Oilada sog‘lom ijtimoiy muhitni yaratishning ijtimoiy-ijtimoiy asoslari”. O‘quv qo‘llanma, Toshkent, 2014.

(9). Amir Temur. Tuzuki Temuriy. T., 2019, 7-8-betlar.

(10). Karimova V. Oila himoyasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi. “Huquq ba burch”, 5-son, Toshkent, 2007, 31-bet.

(11). Kadirova A.T. O‘smirlarda ijtimoiy nizolar to‘g‘risida ijtimoiy tasavvurlarning shakllanishi. Psixol. fan. nom. dis., Toshkent, 2007, 36-bet.

Rustamov Ramz Rizoqulovich (Qarshi davlat Texnika universiteti dotsenti; ramz.rustamov.81@mail.ru)

JAMOATCHILIK FIKRINI SOG‘LOMLASHTIRISHDA IJTIMOIY TARMOQLARDAN FOYDALANISH YO‘LLARI

Annotatsiya*. Muallif mazkur maqolada zamonaviy jamiyatda kishilar ongi va faoliyatini tobora faollashib borayotgan destruktiv zamonaviy targ‘ibot ta’siridan muhofazalash jamoatchilik fikrini sog‘lomlashtirish bilan bog‘liq ekanligi, buning uchun mazkur vazifani amalga oshirishga ijtimoiy tarmoqlarning pozitiv imkoniyatlari safarbar qilinmog‘i, bu imkoniyatlarni realizatsiya qilishda qo‘l keladigan choralar amalga oshirilmog‘i lozimligini ta’kidlaydi.*

Kalit so‘zlar*: targ‘ibot, zamonaviy targ‘ibot, ijtimoiy targ‘ibot, ijtimoiy tarmoq, jamoatchilik fikri, zamonaviy jamiyat.*

Рустамов Рамз Ризокулович (доцент Каршинского государственного технического университета; ramz.rustamov.81@mail.ru)

СПОСОБЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ ДЛЯ УЛУЧШЕНИЯ ОБЩЕСТВЕННОГО МНЕНИЯ

Аннотация. *В данной статье автор подчеркивает, что защита сознания и деятельности людей от все более разрушительного влияния современной пропаганды в современном обществе связана с оздоровлением общественного мнения, а для этого следует мобилизовать позитивный потенциал социальных сетей на реализацию этой задачи, а также принять соответствующие меры для реализации этих возможностей.*

Ключевые слова: *пропаганда, современная пропаганда, социальная пропаганда, социальная сеть, общественное мнение, современное общество.*

Rustamov Ramz Rizoqulovich (Associate Professor, Karshi State Technical University; ramz.rustamov.81@mail.ru)

WAYS OF USING SOCIAL NETWORKS IN MAKING PUBLIC OPINION

Annotation. *In this article, the author emphasizes that protecting people's consciousness and activities from the increasingly destructive influence of modern propaganda in modern society is associated with the improvement of public opinion, and for this purpose, the positive potential of social networks should be mobilized to implement this task, and measures should be taken to implement these opportunities.*

Keywords: *propaganda, modern propaganda, social propaganda, social network, public opinion, modern society.*

Kirish. Zamonaviy jamiyatda jamoatchilik fikriga ommaviy axborot vositalarining ta’siri naqadar katta bo‘lsa, kun sayin faollashib borayotgan ijtimoiy tarmoqlarning ta’siri ham shu qadar ahamiyatli bo‘lmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar deganda internet makonda shaxslar va tashkilotlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni